

Namangan viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi


2026-yil yanvar-mart oylari uchun

- I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi
- II. Namangan viloyat qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida
- III. Qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini yetishtirish
- IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni
- V. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi boʻyicha uslubiy tushuntirishlar va metamaʼlumotlar

I. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi

Dastlabki maʼlumotlarga koʻra, 2026-yilning yanvar-mart oylarida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 4065,6 mlrd soʻmni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda koʻrsatilgan xizmatlar – 3399,8 mlrd soʻmni, oʻrmon xoʻjaligi – 641,6 mlrd soʻmni, baliqchilik xoʻjaligi – 24,2 mlrd soʻmni tashkil qildi.

Namangan viloyatida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmining oʻsish surʼati



II. Qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)lari hajmi hududlar kesimida

2026-yilning yanvar-mart oylarida hududlar kesimida qishloq, oʻrmon va baliqchilik xoʻjaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Namangan sh. (728,6 mlrd soʻm), Toʻraqoʻrgʻon (376,0 mlrd soʻm), Namangan t (373,9 mlrd soʻm), Chust (342,6 mlrd soʻm), Uychi (422,7 mlrd soʻm) va Kosonsoy (302,2 mlrd soʻm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (203,8 mlrd soʻm), Norin tumani (208,8 mlrd soʻm) va Yangiqoʻrgʻon tumanini (284,3 mlrd soʻm) keltirib oʻtish mumkin.

	Hajm mlrd so'm	O'sish sur'ati % da
Namangan viloyati	4 065,6	104,6
Namangan sh.	728,6	102,9
Mingbuloq	203,8	105,9
Kosonsoy	302,2	100,5
Namangan	373,9	105,2
Norin	208,8	106,0
Pop	268,1	107,3
To'raqo'rg'on	376,0	105,2
Uychi	422,7	104,5
Uchqo'rg'on	248,8	105,2
Chortoq	305,8	106,3
Chust	342,6	105,0
Yangiqo'rg'on	284,3	104,6

Hududlar bo'yicha qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati tahlil qilinganda, yuqori o'sish sur'atlari Pop (107,3 %), Norin (106,0 %), Mingbuloq (105,9 %), Chortoq (106,3 %) va Uchqo'rg'on (105,2 %) tumanlarida qayd etildi.

Boshqa hududlarga nisbatan Yangiqo'rg'on (104,6 %), Namangan sh. (102,9 %), Chortoq (105,0 %), Uychi (104,5 %) va Kosonsoy (100,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

III. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish


2026-yilning yanvar-mart oylarida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi 3 325,9 mlrd so'mni yoki 2025-yilning mos davriga nisbatan 104,0 % ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 215,2 mlrd so'mni (127,0 %), chorvachilik mahsulotlari 3 110,8 mlrd so'mni (102,5 %) tashkil qildi.

Hududlar kesimida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (553,3 mlrd so'm), Namangan T (337,8 mlrd so'm), Namangan t (332,2 mlrd so'm) va Uychi (326,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (157,5 mlrd so'm), Norin tumanini (173,3 mlrd so'm) va Kosonsoy tumanini (213,4 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan T (107,3%), Uchqo'rg'on (107,1%), Mingbuloq (106,5%) va Pop (106,1%) tumanlarida qayd etildi. Kosonsoy (99,1%), Namangan sh. (100,2%) va Chust (103,0%) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jalik toifalari bo'yicha taqsimlanishi



Xo'jalik toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,8% i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 12,2% i fermer xo'jaliklariga, 13,0% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Chorvachilik mahsulotlari yetishtirish

Hududlar kesimida chorvachilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan sh. (521,5 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (305,9 mlrd so'm), Uychi (321,9 mlrd so'm), Chust (246,6 mlrd so'm) va Namangan t (302,2 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi.

Aksincha kam hajmga ega hududlarga Mingbuloq tumani (143,1 mlrd so'm), Norin tumani (156,16 mlrd so'm) va Uchqo'rg'on tumanini (198,1 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan t (108,0%), Uchqo'rg'on (107,1%), Pop (106,1%) tumanlarida qayd etildi. Namangan Sh (98,5%), Kosonsoy (98,7%), Chust (103,0%) va Kosonsoy (103,6%) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

2026-yilning yanvar-mart oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 32 078,6 tonna go'sht, 131 242,1 tonna sut, 162 065,6 ming dona tuxum, 359,4 tonna qirqib olingan jun, va 1 208,9 tonna baliq ovlandi.

Hisobot davrida tirik vaznda yetishtirilgan go'sht hajmi o'tgan yilning mos davriga nisbatan 102,4% ni, sog'ib olingan sut – 102,2% ni, olingan tuxum – 106,3% ni, qirqib olingan jun – 114,1% ni, hamda ovlangan baliqlar – 110,9% ni tashkil qildi.

2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlari to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yetishtirilgan go'shtning umumiy hajmidan 8,4% i fermer xo'jaliklari hissasiga, 80,6% i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 11,0% i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim.



Shunga mos ravishda sog'ib olingan sutning 7,5 % i fermer xo'jaliklari, 90,8 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 1,7 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

**2026-yil yanvar-mart oylarida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari va ovlangan baliqlar**

	Yanvar-mart 2026-y.	O'sish sur'ati % da
Go'sht (tirik vaznda), tonna	32 079	102,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 681	150,9
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	25 868	97,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 529	120,4
Sut, tonna	131 242	102,2
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	9 784	122,6
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	119 167	100,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 291	149,9
Tuxum, ming. dona	162 066	106,3
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	59 754	106,1
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	32 297	105,2
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	70 014	107,1
Jun, tonna	359	114,1
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	27	105,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	332	114,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar		
Baliq, tonna	1 209	110,9
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	654	109,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	18	107,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	537	112,3

Shu bilan birga, olingan tuxumning 36,9 % i fermer xo'jaliklariga, 19,9 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 43,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

Shuningdek, qirqib olingan juning 7,6 % i fermer xo'jaliklari, 92,2 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklari, 0,2 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar hissasiga to'g'ri keldi.

O'z navbatida, ovlangan baliqlarning 54,1 % i fermer xo'jaliklariga, 1,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 44,4 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelganligini qayd etish lozim.

**Hududlar kesimida yetishtirilgan asosiy turdagi
chorvachilik mahsulotlari hajmi**

	Go'sht <i>(tirik vaznda), tonna</i>	Sut, <i>tonna</i>	Tuxum, <i>ming dona</i>
Namangan viloyati	32 079	131 242	162 066
Namangan sh.	7 168	10 224	3 573
Mingbuloq	1 359	7 386	7 523
Kosonsoy	1 985	7 972	26 520
Namangan	2 914	9 822	52 204
Norin	1 674	6 382	4 706
Pop	1 836	11 453	6 539
To'raqo'rg'on	2 921	15 592	14 449
Uychi	3 475	10 059	30 551
Uchqo'rg'on	2 057	9 558	2 333
Chortoq	2 418	10 793	6 475
Chust	2 091	20 884	5 459
Yangiqo'rg'on	2 182	11 117	1 735

Dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish

Hududlar kesimida dehqonchilik mahsulotlarining eng yuqori hajmi Namangan t (35,7 mlrd so'm), Yangiqo'rg'on (37,7 mlrd so'm), To'raqo'rg'on (20,3 mlrd so'm), Pop (23,3 mlrd so'm) va Norin (19,1 mlrd so'm) tumanlarida qayd etildi. Aksincha kam hajmga ega hududlarga Namangan sh. (3,7 mlrd so'm), Kosonsoy tumanini (6,5 mlrd so'm) va Uychi tumanini (10,3 mlrd so'm) keltirib o'tish mumkin.

Yuqori o'sish sur'atlari Namangan sh (165,8 %), Pop (148,3 %), Kosonsoy (144,0 %), Norin (141,8 %) va Yangiqo'rg'on (131,0 %) tumanlarida qayd etildi. Namangan t (102,9 %), Chust (122,5 %), Uychi (120,9 %) va Uchqo'rg'on (124,5 %) tumanlarida esa aksincha o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Hududlar kesimida yetishtirilgan sabzavotlar hajmi

	tonna	o'sish sur'ati, % da
Namangan viloyati	3 225,3	129,4
Namangan sh.	180,6	161,5
Mingbuloq	100,2	282,3
Kosonsoy	100,6	198,8
Namangan	1 171,5	97,4
Norin	445,8	160,7
Pop	355,3	227,5
To'raqo'rg'on	236,5	151,6
Uychi	129,8	107,0
Uchqo'rg'on	189,0	116,5
Chortoq	78,6	139,8
Chust	132,5	108,5
Yangiqo'rg'on	105,0	261,1

Yetishtirilgan sabzavot umumiy hajmining eng yuqori ulushi Namangan tumani (47,0 %) hissasiga to'g'ri keldi. Shu bilan birga, yuqori ulush Norin (17,9%), Pop (14,3%), To'raqo'rg'on (9,5%), va Uchqo'rg'on (7,6%) tumanlarida qayd etildi. Past ko'rsatkichlar Chortoq (3,2%), Mingbuloq (4,0%) va Kosonsoy tumanida (4,0%) kuzatildi.



IV. Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2026-yilning 1-aprel holatiga barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 793 590 boshga yetdi, (2025-yilning 1-aprel holatiga nisbatan 0,4 % ga ko'p), sigirlar 265 362 boshga (102,7 % ga ko'p), qo'y va echkilar 860 333 boshga (0,4 % ga ko'p), parrandalar 7 528 841 boshga (110,5 % ga ko'p) yetdi.

2026-yilning 1-aprel holatiga xo'jaliklar toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Bosh	O'sish sur'ati
Yirik shoxli qoramollar	793 590,0	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	50 824	104,4
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	732 595	100,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	10 171	94,4
shundan sigirlar	265 362	102,7
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	24 402	106,0
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	237 156	101,3
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 804	111,6
Qo'y va echkilar	860 333	100,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	70 969	106,2
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	785 720	100,1
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	3 644	65,8
Otlar	7 491	103,4
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	1 125	106,8
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	6 261	101,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	105	308,8
Parrandalar	7 528 841	110,5
shu jumladan:		
fermer xo'jaliklari	2 412 422	109,5
dehqon va tomorqa xo'jaliklari	2 201 192	108,7
qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	2 915 227	112,8

2026-yilning 1-aprel holatiga ko'ra, yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 6,2 % i fermer xo'jaliklari hissasiga, 92,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,4 % i qishloq xo'jaligi



faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda sigirlarning umumiy sonidan 8,9 % i fermer xo'jaliklariga, 89,5 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 1,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, shuningdek, qo'y va echkilarning umumiy sonidan 7,8 % i fermer xo'jaliklariga, 91,6 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 0,6 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi, parrandalar umumiy sonidan 32,3 % i fermer xo'jaliklariga, 29,7 % i dehqon va tomorqa xo'jaliklariga, 37,9 % i qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keldi.

**2026-yilning 1-aprel holatiga hududlar kesimida
chorva mollari va parrandalar bosh soni**

	Yirik shoxli qoramollar	Qo'y va echkilar	Parrandalar
Namangan viloyati	793 590	860 333	7 528 841
Namangan sh.	73 056	109 754	343 225
Mingbuloq	54 679	30 947	368 075
Kosonsoy	58 630	65 750	1 416 874
Namangan	54 648	40 302	1 263 235
Norin	50 031	47 196	194 054
Pop	73 779	122 328	329 084
To'raqo'rg'on	74 253	65 354	821 248
Uychi	55 616	46 909	1 294 646
Uchqo'rg'on	73 356	45 587	714 955
Chortoq	69 201	64 779	292 643
Chust	85 853	141 452	219 049
Yangiqo'rg'on	70 488	79 975	271 753



V. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi bo'yicha uslubiy tushuntirishlar va metama'lumotlar

Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarish hajmi – sohada o'z iste'moli va sotish uchun yaratilgan mahsulot va xizmatlarning umumiy qiymati. Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi dehqonchilik va chorvachilik mahsulot (xizmat)lari yalpi ishlab chiqarishi, ovchilik xo'jaligida, o'rmonchilik va yog'och tayyorlash, baliq ovlash va akvakultura sohasida yetishtirilgan mahsulot (xizmat)lar qiymati asosida shakllantiriladi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari – hisobot davrida fermer xo'jaliklarida, dehqon va tomorqa xo'jaliklarida hamda qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarda yetishtirilgan dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining jami qiymatini belgilab, qishloq xo'jaligida mahsulot yetishtirishning umumiy hajmini ifodalaydi.

Fermer xo'jaligi – ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotini yetishtirish hamda qonunchilikda taqiqlanmagan boshqa faoliyat turlari bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlik subyektidir.

Dehqon xo'jaligi – meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish yoki ijara (ikkilamchi ijara) huquqi asosida dehqon xo'jaligi boshlig'iga berilgan yer uchastkasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishni va realizatsiya qilishni dehqon xo'jaligi a'zolarining mehnati asosida amalga oshiruvchi xo'jalikdir.

Tomorqa xo'jaligi – shaxsiy tomorqa yer uchastkalarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ham erkin savdo uchun, ham oila ehtiyojlari uchun yetishtirish (qayta ishlash) bilan bog'liq mehnat faoliyatidir.

Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtiruvchi, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishiga xizmat qiluvchi, xo'jalik yuritish jarayonida yerga hamda boshqa ishlab chiqarish mulklariga egalik qiluvchi yuridik shaxs huquqiga ega xo'jalik yurituvchi subyekt hisoblanadi.

Mollar bosh soni – xo'jalik toifalari bo'yicha barcha yosh guruhlaridagi asosiy turdagi chorva mollarini o'z ichiga oladi (yirik shoxli qoramollar, shu jumladan sigirlar, qo'y va echkilar, cho'chqalar va h.k.)

Go'sht yetishtirish – so'yish uchun sotilgan hamda o'z xo'jaligida so'yilgan barcha turdagi qishloq xo'jaligi hayvonlari va parrandalarning tirik vaznini o'z ichiga oladi.

Sut yetishtirish – yosh mollarga ichirish uchun sog'ib olingan sut va og'iz sutini qo'shgan holda, haqiqatda sog'ib olingan sigir, echki, qo'y, biya va tuya sutlari bilan aniqlanadi. Buzoqlar emgan sut yalpi sog'ib olishga kiritilmaydi.

Tuxum yetishtirish – barcha turdagi parrandalardan olingan hamda kurk tovuqlar bilan va inkubatorlarda jo'ja ochish uchun sarflangan tuxumlar miqdorini o'z ichiga oladi.

Metama'lumot uchun havola:

<https://lib.stat.uz/uz/features/qishloq-xo-jaligi-va-ekologiya/685-qishloq-o-rmon-va-baliqchilik-xo-jaligi-mahsulot-xizmat-lari-yalpi-ishlab-chiqarishini-hisoblash-bo-yicha-uslubiy-nizom-2>

Tayyorlash uchun mas'ul:
Qishloq xo'jaligi va atrof-muhit
statistikasi boshqarmasi

Ijrochi:
D. Muborakov
69 227-84-82 (5110)

Manzil:
160133, Namangan sh,
N.Namangoniy ko'chasi, 14-uy.
